

## ODAM ANITOMIYASI VA FIZOLOGIYASI FANNI O'QITISHDA ZAMONOVIIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Alimardanova Mutabar Xolmo'minovna**

*ShDPI. O'qtuvchisi*

**Do'rmanova Shoir Abdimalikovna**

*Shahrisabiz davlat pedagogika instituti*

*Biologiya yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

[Shoiradurmanova1997@gmail.com](mailto:Shoiradurmanova1997@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oily ta'lim va o'rta ta'lim mussasalarida ' Odam anatomiyasi va fiziologiyasi' fanini o'qitishda Reproduktiv, Didaktika, Yaxlit yondashuv, Interfaol, Aqliy hujum , Diagnostik , O'yinli texnologiyalardan foydalanish haqida ma'lumot bayon etiladi

**Kalit so'zlari..** Zamonoviy texnologiya ko'nikmalar, Reproduktivlik, Konstruksiyalash , Novatorlik, Konseptuallik, Aqliy hujim, fikir hujim, Blitz o'yin texnologiya, produktiv, Ta'lim-tarbiya o'qitish metodlari.

**АННОТАЦИЯ** В данной статье описана информация об использовании инноваци онных технологий при преподавании предмета «Анатомия и физиология» в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Инновация, субъективная, ментальная атака, мысленная атака, технология блиц-игры, метод интервью, концепция, информационные технологии, образование, репродуктивные, продуктивные, методы обучения.

**ABSTRACT** This article describes information about the use of innovative technologies when teaching the subject "Anatomy and Physiology" in higher education institutions.

**Key words:** Innovation, subjective, mental attack, mental attack, blitz game technology, interview method, concept, information technology, education, reproductive, productive, teaching methods.

**KIRISH:** Ma'lum ta'lim jarayoni o'quvchi va talabalarning bilim olish ko'nikma va malakalarni egallash ularning zamonoviy texnologiya foydalanishni o'rgatish, ilmiy dunyoqarashi ijodiy izlanish rivojlanishlarini maqsadi qilib quyish. Hozirgi kundagi ta'lim jarayonida zamonoviy texnologik metodlar interfoal metodlar innovatsion texnologiya va yaxlit yondashuv diagnostik o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fani dastur ikki bo'limdan iborat bo'lib birinchi bo'lib odam anatomiyasi ikkinchi bo'limi esa odam fiziologiyasiga bag'ishlangan. Unda odam organizimning anatomiyasi- skelet, muskul, ichki organlar, nerv sistemasi tuzilishnig o'ziga xos xususiyatlarini o'zi ichiga oladi. Bundan tashqari organ va organlar sistemasining fiziologiyasi organinizm faol harakatlanish jarayonida yuzaga keladigan funksional va struktur o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida o'rganish bag'ishlangan.

**MAQOLANING MAQSADI** Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda metodlardan foydalanishdan maqsad- o'quvchi va talabalarga odam organizmni tuzilish va funksiyalari, organlarni ontogenez davomida takomilashishini o'rgatishdan iborat. Bu fanlarni o'qitish davomida o'quvchi-talablar organilar sistemasini ularning tuzilish fiziologiyasi va kasaliklar to'risida bilim ega bo'lishda metodlar yordam beriladi. Metodning vazifasi o'quvchi va talabalarga odam organizimning tuzulishi va a'zolarning fiziologiyasi hamda rivojlanish qonuniyatlarini, tashqi muxitining odam organism ta'sirini eksperimental metod sifatida o'rganishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nika malakasiga qo'yiladigan talablarni bajarishda yordam berish. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamroklik faoliyatini tashkil etib, har ijobiy natijaga erishsa. O'quv

jarayonida o'quvchi talabalar mustaqil fikrlas ijodiy ishlasa izlansa tahlil eta olsa o'zlari xulosa qila olsa o'zlariga, guruh esa ular baho besa o'tuvchi esa ularning bunday faoliyatlar uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa ana shular o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ta'lim axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi . Biroq muvjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalar o'qitish nuqtai nazarida ta'lim sifatida muhim siljishlariga olib kelish mumkin emas. Buning sabablaridan bir kompyuter texnologiyalarini an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayoniga joriy etila boshlanganligida bo'lib o'z mazmun va metodi bo'yicha bu texnologiya aniq maqsadga yo'naltirilmagan. Shu munosabat bilan iqtisodiy ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish muammo va istiqbollarni ko'rib chiqish favuqlodda muhimdir.

**ANATOMIYA** o'qitish metodikasi barcha o'quv fanlarga taalluqli bo'lgan pedagogic qoidalarni biologic o'quv materialiga tatiq etishga yo'nalgan. Shu bilan bir qatorda anatomiya o'qitish metodikasi tabiiy ilmiy, biologik, psixologik bilimlarni o'zida mujassamlashtiradi. Anatomiya o'qitish metodikasi anatomiya o'quv fanning o'qitish maqsadini, mazmunini anatomic bilimlarning tanlashbelgilab beradi.

Anatomiya o'qitishning hozirgi davrda samarli bo'lishi o'quvchilarning o'quv mehnat va jamoat faoliyatlarida qatnashish uchun zarur bo'lgan anatomik bilimlar, ko'nikmalar malakalarni egallaganlik bilan belgilanadi. Ular esa o'z navbatida o'quvchilarning tarbiyalanganlik natijasida dunyoqarashi, e'tiqodi, tabiat, jamiyat va shaxsga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning rivojlanish darajasi qobiliyati, jismoniy va amaliy jihatdan takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoji bilan ifodalanadi. Anatomiya o'qitishning maqsadi yuqorida qayd qilingan omillardan kelib chiqadi. Anatomiya o'qitishning maqsadlarini bilish o'qituvchiga o'qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Anatomiya o'qitishning maqsadlarini bilish o'qituvchiga o'qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Fan sifatida anatomiya o'qitish metodikasining vazifalari iborat.

1. O'quvchilarning o'qitish va tarbiyalash kamolga yetkazishda o'quv fanining o'rnini aniqlash
2. Maktab o'quv dasturlar va darliklarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar chiqish va uni maktab amaliyotiga tatiq etish.
3. O'quvchilarining yoshiga mos ravishda o'quv fanlarining mazmuni, undagi mavzularning o'rganish izchilligini belgilash.
4. Anatomik o'quv fanlarinig o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda, o'qitish usullarini tashkiliy shakllarini ishlab chiqish.
5. O'qitish jarayonida qo'llash uchun zarur jihozlarni aniqlash. Anatomiya xonasi tirik burchak tajriba yer maydonini tashkil etish tabiiy, tasviriy, dinamik, audio video vositalarini belgilash.

Metod so'z grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi kelib chiqish uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. 'metod- eng umumiy ma'noda- maqsadga usuli, ma'lum tarzda tartib solingan faoliyat.

**AQLIY HUJUM** metodi ta'lim beruvchi tomonidan quyilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi.

1. Ta'lim oluvchilarinig boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod dasrning mazuga kirish qisimida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keying mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda- yangi mavzuga o'tish qisimida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda mavzuda so'ng dasrning mustahkamlash qisimida amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum» metodining mohiyati ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bunda maqsad berilgan qisqa vaqt ichida ma'lum muammoning yechimini topishga qaratilgandir. Bu psixotexnik o'yin mashg'ulot jarayonida ijodiy va noandoza fikrlashni uyg'otadi. Bitta yoki bir necha guruh tashkil etiladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Talabalar o'z oldiga qo'yilgan muammoni yechish uchun turli g'oyalarni ilgari suradi. Echim variantlari qancha ko'p bo'lsa, tanlash jarayoni shunchalik oson bo'ladi. Har bir ilgari surilgan g'oyani atroflicha ko'rib, kengaytiriladi va ularorasidan eng to'g'ri g'oyani muammoning yechimi sifatida qabul qilinadi. Muammoni yechish vaqti oldindan belgilab olinadi va unga qat'iy amal qilinadi. «Aqliy hujum» o'yini qiyin

vaziyatlardan qutulish chorasini tez topishga, muammoni ko'ra bilish chegaralarini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo'qotishga va keng doirada tafakkur yuritishga imkon beradi. Bundan labhqari jamoadagi munosabatlar o'zgaradi, kurashish kayfiyatidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

Hozirgi vaqtda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Biroq mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlariga olib kelishi mumkin emas. Buning sabablaridan biri kompyuter texnologiyalarini an 'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayoniga joriy etila boshlanganligida bo'lib, o'z mazmuni va metodi bo'yicha bu texnologiya aniq maqsadga yo'naltirilmagan. Shu munosabat bilan iqtisodiy ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish muammomo va istiqbollari ko'rib chiqish favqulodda muhimdir. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Pedagogik texnologiyalar — ta'lim berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, u o'ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanining o'qitilish sifati va samara dorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanidan o'rganilayotgan materiallarning o'quv soatlari miqdori hisobga olingan holda mavzu bloklariga ajratiladi, har bir ma'ruza mavzu blokiga 2-8 o'quv soati oralig'ida vaqt ajratiladi hamda ushbu mavzu blokiga mos amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni va hajmi belgilanadi. Bu usulda har bir mavzuni o'rganishdagi ichki izchillik va uzviylik to'la saqlanadi va talabalarda mavzuga oid malaka va ko'nikmalarini

to'laroq va maqsadliroq shakllantirish imkoniyati kuchayadi. Innovatsiya texnologiyalari o'qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omil ko'nikmalarini shakllantirish, metodik mahoratini ko'tarish, o'qituvchi pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo'lib qolmoqda. Anatomiya va fiziologiya fanini o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalarga)ga tavsifnoma berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi

to'g'risida metodik tavsifnoma berib o'tamiz:

**Xulosa:** Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda Innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning mustaqil ishlashiga, ijodiy fikrlashiga va ta'lim samardorligini orttirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Nuraliyev, S. (2024). ANAGALLIS ARVENSIS LINN. (SCARLET PIMPERNEL)NING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI HAMDA TUZILISHI. Talqin Va Tadqiqotlar, 2(7(44). Извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2121>
2. Suyunov G'olib Tufli o'g'li Qiyomov O'ral Ali o'g'li Daminova Fayoz Abdihakimovna. (2024). QASHQADARYO VILOYATINING AYRIM QURUQLIK VA CHUCHUK SUV MOLLYUSKALARINING MALAKOFAUNA TARKIBI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI. [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10934973>.